

IMTIHONLAR, TESTLAR VA BAHOLASHNING CHET TILI DARSLARIDAGI O'RNI

Kaxarova Mavludaxon Mukarramovna

FarDU filologiya fanlari nomzodi, professor v.b.

Akbarova Marhaboxon Zaylobiddin qizi

FarDU Lingvistika (nemis tili) 2-kurs magistranti

marhaboakbarova@mail.ru


ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada imtihonlar, testlar va baholashning chet tili darslaridagi o'rni, nima uchun baholash kerak va baholashning o'rganish jarayonidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Xalqaro imtihon shakllari va ularning o'xshash va farqli jihatlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Test, imtihon, baholash, CEFR, PISA, PIRLS, TALIS, TIMSS, frontal dars, kombinatsiyalashgan tekshirish.

Biz har doim tekshiramiz, imtihonlar o'tkazamiz va natijalarini baholaymiz, chunki bizning o'quvchilarimiz o'quv maqsadiga erishyaptimi? Boshqa o'quvchilar bilan solishtirganda bizning o'quvchilarimiz yuqori natijalarga erishganmi? Imtihon natijalarini baholash orqali o'quvchilarning ko'rsatkichlarini ota-onalarga yetkaza olamiz. Doimiy nazorat sababli o'rganuvchilar ham natijani yaxshilash ga harakat qiladilar. Umid qilamizki, ushu savolga javob berish orqali sizlarga baholash va baholash amaliyoti haqida fikr yuritishga yordam berdik. Kelinglar, e'tiborimizni o'quvchining nuqtai-nazari va tanlov qilingan vaziyatlarni qanday qabul qilishiga qaratamiz. O'quvchilar faoliyatini baholashning sabablari juda boshqacha bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda barcha o'quvchilar baholash jarayonidan o'tishlari kerak. Baholash- majburiy maktab ta'limining bir qismidir. Ular o'zlarining kasbiy imkoniyatlarini oshirish uchun sertifikat olishlari, treninglarda qatnashishlari, boshqalari esa xorijiy oliyohlarda o'qishlari kerakligi uchun imtihonlar topshirishadi. Test ishtirokchilari tegishli testni qaysi maqsadlar bilan topshirishlari ko'pincha ularning testni qay holda boshdan kechirishlari va testlar bilan qanday his-tuyg'ularni bog'lashlari hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Nafaqat haqiqiy test yoki imtihon holatlari, balki darsda qo'llab-quvvatlash, tuzatish, maqtash va jazolash, o'qituvchilarning baholash nuqtai- nazari ham o'quvchilarda eng xilma-xil reaksiyalarni uyg'otadi. Ba'zi o'quvchilar baholash holatlarini ko'proq qiyinchilik deb bilishadi, lekin agar ular

muvaffaqiyatga erishsalar bu holatni ijobiy his-tuyg‘ular bilan bog‘laydilar. Biroq, baholash ko‘pincha salbiy his-tuyg‘ular bilan bog‘liq. O‘tmishga nazar solsak, o‘quvchi sifatida o‘zimiz boshdan kechirgan imtihon, test va baholash uchun yoqimli va yoqimli bo‘limgan hatto kulgili vaziyatlarni boshdan kechirganmiz.



Og‘zaki frontal tekshirish o‘quvchilardan og‘zaki so‘rash bo‘lib, ular guruhga qaratilgan savollarga javob beradilar. Bunday tekshirishda javoblar qisqa bo‘ladi. Mazkur so‘rash ko‘pchilik o‘quvchilarni nazorat qilishni ta’minlaydi va butun guruhnini faollashtiradi, ammo o‘quvchilar nutqini o‘stirmaydi. Bunday nuqsonlar individual so‘rashda ko‘zga tashlanmaydi. Ammo so‘rashning bu shaklida guruhdagi boshqa o‘quvchilarning to‘laqonli ishslashlariga erishish juda qiyin.

Kombinatsiyalangan(tezlashtirilgan) tekshirishda o‘qituvchi bir necha o‘quvchini bir vaqtda doskagachaqiradi, biri og‘zaki javob beradi, 3-4 nafar o‘quvchi esa kartochkalar bo‘yicha yozma ishlarni bajarishadi va hokazolar. Bu tekshirishning murakkab usuli bo‘lib, o‘qituvchidan yetarli tajriba va diqqatlarini guruhdagi hamma o‘quvchilarga taqsimlay bilishni talab qiladi.

Yozma tekshirish- o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo‘lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o‘qituvchi alohida mavzu yoki o‘quv dasturining ma’lum bo‘limini o‘tib bo‘lgandan so‘ng o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashni tashkil etadi. Yozma tekshirish topshiriq ya’ni, insho yozish hamda turli nazorat va mustaqil ishlarni bajarishni uyda ham amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu jarayonda o‘qituvchining bajarilgan ish bilan tanishib chiqishi, uning sifatini tekshirishi uchun ko‘p mehnat va vaqt sarflanadi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to‘g‘riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo‘lishi mumkin. Xorijiy til o‘qituvchilari o‘quv jarayonida bilimni nazorat qilish turlari va baholashga o‘rgatishda xorijiy tajribalar amaliy qiymatga ega. Ta’lim mazmunini modernizatsiyalash jarayonida o‘qitish, o‘rgatish, dars berish

metodlaridagi bir-biri bilan bog'lanishlar va ularga qo'yilgan maqsadni amalgalashirish imkoniyatlari ancha yuqori bo'lib, ular o'zida bir nechta faol metodni biriktiradi hamda dars berish jarayonida bosqichma- bosqich maqsadni amalgalashirishda xizmat qiladi.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab- quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'naliishdagi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish ta'lim sohasi tubdan yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda, PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o'ringa ega davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizim mamlakatda ta'lim sifati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish, maktablar faoliyatiga turli omillarning ta'sirini tahlil qilish va hisobga olish imkonini beradi. Buning vositasida maktablar o'z- o'zini baholaydi, mavjud muammolarni aniqlaydi, ota- onalar farzandlari bilimi to'g'risida kerakli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shunday qilib, tadqiqotlarimiz natijasida qator adabiyotlar va ilmiy manbalar tahlil etildi. Tahlillar shuni ko'rsatadi, o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash to'laqonli o'z yechimini topmaganligini ko'rish mumkin. Axborot texnologiyalari sharoitida ayniqsa, mamlakatimizda bugungi kunda xorijiy tajribalar asosida o'quvchilar bilim saviyasi va baholash muhim masalalar sirasiga kirganligini bildiradi. O'quvchilar bilim darajasini nazorat qilish va baholashda xorijiy tajribadan foydalanib, chet tillarini o'qitishda yuqori natijaga erishish mumkin. Imtihonlar, tekshirishlar va baholashlar insonlar hayotining katta qismini tashkil etadi. Ayniqsa pedagogik soha vakillari butun umri davomida ushbu jarayonni boshdan kechiradilar. O'rganuvchilar imtihon jarayonlarida yaxshi natijalarga erishishlari uchun ular tinimsiz mehnat qiladilar. Shunday ekan, biz bu jarayonlarda qanday natijaga erishishimiz faqat o'zimizning qanchalik o'qib-o'rganishimizga bog'liqdir. Chet tili darslarida pedagoglarning imtihonlar, tekshirishlar va baholash turlaridan samarali foydalanishi esa o'rganuvchilarda yanada katta qiziqish uyg'otishiga ishonchimiz komil.

Shu paytgacha biz tekshirishlar, testlar va baholash atamalarini bir xil tushuncha sifatida foydalanib kelganimiz. Ilmiy adabiyotlarda ham amaliyotda ham tekshirish va test atamalari ba'zan sinonim sifatida, ba'zan esa boshqacha tarzda qo'llaniladi. Umumiylashtirish shundan iboratki, imtihon oluvchilar aniq topshiriqlar orqali harakatlar yoki reaksiyalar qilishga undaydilar. Masalan, ularni matnni shunday tushunishga undash kerakki, ular muayyan savollarga topshiriq beruvchi tomonidan

so‘ralgan ma’lumotlarni taqdim etishlari yoki tasvirlar, grafikalar va qisqa matnlardan foydalanib o‘z matnlarini yozishlari kerak. Ayniqsa sertifikatlar berish haqida gap ketganda ko‘pchilik faqat tekshirish va testlarni tushunadilar. Til o‘quv dasturlarini o‘zgartirish, metodologiyalarni o‘zgartirish va baholash amaliyotini o‘zgartirish bo‘yicha katta hajmdagi ishlarning amalga oshirilishiga qaramay, CEFRning foydaliligi bo‘yicha munozaralar, seminarlar, kongressslar ham ushbu til siyosati sinflarga yoki o‘quv materiallariga samarali mos keladi deb aytib bo‘lmaydi. Barcha o‘qitish va ta’lim maqsadlari ham muloqot ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallanmagan va baholash turlari ham aniq natijalarga yo‘naltirmaydi, ya’ni o‘rganuvchi biror- bir faoliyat yoki kursni tugatgan taqdirda ham bu uning nimani tushunganligini ko‘rsatib bermasligi mumkin. Ko‘p narsa o‘zgardi, lekin hali ham siyosat haqiqiy hayotga mos keladi deyish uchun ko‘p ish qilish kerak degan fikr mavjud. Shunga qaramay, CEFRning eng muhim hissalaridan biri- til o‘rganuvchilarda sezilarli darajada professional o‘sishga olib keldi. 2022-2023- yillarda mamlakatimizda sertifikatlashning ishdagi va davlat imtihonlaridagi afzalliklar tufayli ushbu daraja bilish imtihonlariga bo‘lgan talabni yanada oshirdi. Barcha sohalarda chet tili o‘rganuvchilariga moddiy tomondan rag‘batlantirishlar va shaxsiy rivojlanish uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bois yoshlar orasida xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqish kundan- kunga ortib bormoqda. Bu esa o‘qituvchilardan yuqori saviya va innovatsion, samarali usullardan foydalanishni talab etmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, chet tillarini o‘rganish xalqaro maydonda imkoniyatlar eshigining kaliti hisoblanadi. Shu sababdan, yosh avlodni bugungi kunda chet tillarini o‘rganishi uchun katta e’tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari chet tili o‘rgatishning amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari mavjud bo‘lib, bu maqsadlar til o‘rganuvchilar shaxsining shakllanishida munosib o‘rin tutadi. Ruhshunoslar va ta’limshunoslarning e’tirof etishlaricha, til o‘rganuvchilarga ta’lim jarayonida yetarli miqdorda qiyinchiliklarni yengib borish o‘rgatilsagina, ularning tafakkurini tezkorlik bilan rivojlantira olish mumkin. Shaxsning kamoloti faqat tafakkur rivoji bilan emas, balki uning hiss tuyg‘ulari ravnaqi bilan ham bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Grotjahn, Rüdiger/Kleppin,Karin: Prüfen, Testen, Evaluieren. DLL. Band 7. München: Klett- Langenscheidt-2015
2. To‘xtayeva G. A Proceeding of International Conference on Modern Science and Scientific Studies-O‘quvchilar bilim darajasini nazorat qilishning nazariy asoslari va xorijiy tajriba-2022

3. Bachmann, Lyle F./PALMER, Adrian S. (2010): Language assessment in practice: Developing language assessments and justifying their use in the real world. Oxford: Oxford University Press
4. Kakharov, K. (2023). FORMS OF GREETING AND ADDRESS IN THE UZBEK AND GERMAN PEOPLES. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 635-637.
5. Kakharova, M. (2023). ASSESSMENT OF THE KNOWLEDGE OF LANGUAGE LEARNERS. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 3(4), 181-184.
6. Kaxarova, M. M., & Aripova, S. (2023). UNIQUE CHARACTERISTICS OF LEXEMES RELATED TO MARRIAGE IN DIFFERENT COUNTRIES. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 3(4), 185-188.
7. Кахарова, М., & Зоҳидов, И. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШДА ҚЎЛЛАНИЛГАН МЕТОДЛАРДА ТЕСТ ТОПШИРИҚЛАРИ ТУРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMY JURNALI*, 2(10), 161-164.
8. Кахарова, М., & Акбарова, М. (2022). Гурухлар Ишларини Ташкиллашнинг Фронтал Дарслардан Авзаликлари. *Ta'lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali*, 2(10), 165-169.
9. Kaxarov, Q., & Usmanova, F. (2023). NEMIS TILIDAGI GRAMMATIK KATEGORIYALARING O 'ZIGA XOSLIKHLARI VA ULARNI O 'ZBEK TILI BILAN TAQQOSLASH. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMY JURNALI*, 3(4), 148-151.
10. O'G'Li, K. K. S., & Ogli, A. M. K. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OLAM LISONIY MANZARASI VA UNING MAQOLLARDA IFODALANISHING AHAMIYATI. *Ta'lim fidoyilari*, 2, 15-21.
11. Pazilova, Z. (2021). Traditions as an integral part of ethnoculture. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 689-691.
12. Zilola, P. (2022). Realization of Stable Units. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 117-121.